

ARTUR KONAN DOYLNING "SHERLOK XOLMES" VA "LA'NATLANGAN BASKERVILL ITI" ASARLARIDA SO'Z SHAKLLARINI ALMASHTIRISH

Choriyeva Shahrizoda Ixtiyor qizi

Ter.Du talabasi

+998971931300, shaxrizodachoriyeva4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining ko'plik shakllarini tarjima qilishda duch kelingan muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ko'plik, birlik, miqdor, grammatik kategoriya, semantik, funksional.

Ingliz tilida ko'plik (plural) shakli yasash uchun ko'pgina otlarga -s qo'shimchasini qo'shamiz. Masalan: birlikda book bo'lsa undan ko'plik yasash uchun -s qo'shimchasini qo'shsak kifoya: books – kitoblar. O'zbek tiliga -s qo'shimchasi -lar deb tarjima qilinadi.

one flower – two flowers

one zebra – four zebras

one lion – three lions

Ammo o'zbek tiliga *three lions*- uchta sherlar deb tarjima qilinmaydi. O'zbek tili grammatikasida aniq miqdor yoki -lar qo'shimchasi qo'llaniladi.

Ikki tilning grammatik sistemalari o'rtasida mavjud bo'lgan farqlar tarjimonlik ishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ikkala tilda bir xildek ko'ringan grammatik kategoriyalar aslida o'z ma'nolarining hajmi, funksiyasi (vazifasi) va leksik materialni qamrab olishi jihatidan hech qachon bir- biriga to'g'ri kelmaydi. Masalan: o'zbek va nemis tillarda otlarning ikkita son shakli birlik va ko'plik shakllari mavjud; ammo bu bir xildek tuyulgan grammatik shakllar orasida to'la semantik va funksional bir xillik bo'lmaydi.

* *May I see it? Sherlock was obviously surprised by the **news**.* Artur Konan Doyle "Sherlok Xolmes" - P36

*Ko'rsam maylimi? - dedi. Sherlok bu **xabardan** hayratga tushdi.*

Ushbu gapda *news* - xabarlar deb emas, balki xabar deb tarjima qilinadi. Chunki gap mazmunida g'alizlik yuzaga keladi.

* *Neville explained his disappearance by some **troubles** that might last a couple of **days**.* [3.P36]

*Nevil o'zini g'oyib bo'lishini bir necha **kun** davom etishi mumkin bo'lgan bir nechta **muammo** bilan izohlangan.*

O'zbek tilida yoki miqdor keladi yoki -lar qo'shimchasi. Bu gapda bir nechta so'zi miqdorni bildirganligi uchun muammo so'ziga lar qo'shimchasini qo'shib tarjima qilinmaydi.

I have seen these **symptoms before. [3.P12]*

*Men bu **alomatni** avval ko'rganman.*

Amolatlarni deb tarjima qilinsa nutqiy g'alizlik kelib chiqadi.

Quyidagi gaplarda ham ingliz tilidagi ko'plik shakli o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda o'zbek tiliga moslashtirib tarjima qilingan.

Just as these **words were spoken Miss Mary Sutherland was brought in. [4.P17]*

*Bu **gap** aytilganda Miss Mery Sezorlandni olib kelishdi.*

She was standing at the top of **stairs, holding her hands tightly together. [4.P34]*

*U **zinapoyaning** tepasida qo'llarini mahkam ushlagancha turardi.*

We put on our **coats quickly and went out into the moor. [4.P34]*

*Ust- **kiymimizni** tezda kiyib yaylovga chiqdik.*

We must listen for any **sounds from Merripot House. [4.P50]*

*Biz Merripot uyidan qanday **tovush** eshitilsa o'shani eshitishimiz kerak.*

At last, we heard a door open, then the sound of **voices. [4.P50]*

*Va nihoyat biz eshik ochilganinig **ovozini** eshitdik.*

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarining ko'plik shakllarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar, tilning grammatik tuzilishidagi farqlarni hisobga olishni taqozo etadi. Tarjimonlar har ikki tilning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tushunib, matnning ma'nosini va shaklini to'g'ri ifodalashga harakat qilishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Allayorova R. Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2008
- 2.Wisdom, electronic dictionary app version: 3.2.4
3. Arthur Conan Doyle, Adventures of Sherlock Xolmes, Mediasat Poland, 2004.
4. Arthur Conan Doyle, The Hound of the Baskervilles, Macmillan.
- 5.Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.
- 6.Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.
7. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.
- 8.Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
9. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.
10. <https://hasanboy.uz/4-dars-plurals/>